



LITSENZIYALASH VA RUXSAT BERISH SOHASIDA 2025-YILDA AMALGA OSHIRILGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR

Yanvar 2026

2025-yil davomida bank-moliya sektorida huquqiy bazani takomillashtirish va bozor mexanizmlarini liberallashtirishga qaratilgan qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash, raqobatni kuchaytirish hamda aholi va biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishga xizmat qildi.

Jumladan, mikromoliyalashtirish bozorini yanada rivojlantirish maqsadida **mikromoliya banklari instituti joriy etildi** va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi hamda shartlari belgilandi. Natijada, respublikamizda ikki pog'onali bank tizimi joriy qilinib, mikromoliya banklarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni keyinchalik an'anaviy banklarga **transformatsiya qilish** imkoniyati yaratildi.


2025-yilda **"Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonun** qabul qilinib, banklarni **tugatish jarayoni** yuzasidan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi mezonlar **ishlab chiqildi** hamda "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi (30.06.2020 sanadagi 3252-sonli) Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, **"bank" atamasidan** internet tarmog'ida **"UZ" domen zonasida** foydalanish huquqi **faqat Banklarning davlat reyestriga kiritilgan yuridik shaxslargagina** tegishli ekanligi qonunchilikda

Nobank kredit tashkilotlarining ustav kapitalidagi 10–20 foiz ulushga egalik qilishda dastlabki ruxsat olish talabining bekor qilinishi va xabardor qilish tartibiga o'tkazilishi bozorga kirishni yengillashtirib, investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, faktoring tashkilotlari va kafolatlar berish tashkilotlarini hisob ro'yxatidan o'tkazish hamda ularni davlat tomonidan nazorat qilishning huquqiy asoslari yaratildi. Mazkur mexanizmlar ushbu xizmat turlarining qonuniy, tizimli va shaffof faoliyat yuritishini ta'minlab, biznes subyektlari uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.


Islohotlarning amaliy natijasi o'laroq, 2025-yilda **1 ta** mikromoliya banki va **1 ta** kredit byurosi davlat ro'yxatidan o'tkazildi hamda **8 ta** faktoring tashkiloti va **1 ta** kafolatlar berish tashkiloti hisob ro'yxatidan o'tkazildi. Shuningdek, **4 ta** to'lov tashkilotiga litsenziya berildi, **37 ta** mikromoliya tashkiloti hisob ro'yxatiga kiritildi va **1 ta** lombard faoliyatini boshlaganligi bo'yicha xabarnoma qabul qilindi, **12 nafar** auditorga banklarda auditorlik tekshiruvlari o'tkazish huquqini beruvchi malaka sertifikatlari taqdim etildi.

FAOLIYAT BOSHLAGAN TASHKILOTLAR SONI




Shu davrda respublika bo'ylab bank xizmatlarini ko'rsatuvchi **153 ta** ofis, **172 ta** mikromoliya tashkiloti filiali va **78 ta** lombard filiali ochilganligi haqidagi xabardor qilish tartibidagi ma'lumotlar qabul qilindi. Kredit tashkilotlarining ustav fondidagi ulushni sotib olish bo'yicha berilgan ruxsatnomalar soni **32 tani** tashkil etdi. Xususan, taqdim etilgan ruxsatnomalarning **8 tasi** banklarning, **19 tasi** mikromoliya tashkilotlarining, **4 tasi** lombardlarning va **1 tasi** faktoring tashkilotining ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olish uchun berilgan.

OCHILGAN BANK XIZMATLARI OFISLARI VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARI FILIALLARI



Banklarning korporativ boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida **63 ta** kuzatuv kengashi a'zosi, **77 ta** boshqaruv a'zosi va **48 ta** muhim ahamiyatga ega xodimning malaka talablariga muvofiqligi baholandi.

XODIMNING MALAKA TALABLARIGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASHLAR SONI



“Yevroosiyo Banki” aksiyadorlik jamiyatidan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi **litsenziya** belgilangan tartibda **chaqirib olindi** va hozirda bankni tugatish komissiyasi tomonidan tugatish jarayonlari olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy bozor barqarorligini va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan tizimli va izchil islohotlarning davomi hisoblanadi.